

Baxtiyor Yakubov,

*San'atshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent*

TARIXIY SHAXS PORTRETIGA ZAMONAVIY QARASH

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada so'nggi yillar o'zbek kinosida katta e'tibor qaratilayotgan tarixiy filmlarning ayrimlari borasida tahliliy mulohazalar yuritiladi. Ulardagi tarixiylik va badiiylik masalari, badiiy yaxlitlik hamda tarixga zamonaviy qarash kabi muhim xususiyatlar tadqiq etilib, eng muhim o'rinlari nuqtai nazaridan fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** tarix, tarixiylik, tarixiy shaxs, badiiy idrok, badiiy yaxlitlik, tarixiy janr, tarixiy-batal filmlar, ma'rifiylik.*

***Аннотация.** В этой статье анализируются некоторые исторические фильмы, которым уделяется большое внимание в узбекском кинематографе в последние годы. В них исследуются такие важные особенности, как историчность и художественность, художественная целостность и современный взгляд на историю, и рассматриваются с точки зрения наиболее важных мест.*

***Ключевые слова:** история, историчность, историческая личность, художественное восприятие, художественная целостность, исторический жанр, историко-боевые фильмы, просвещенность.*

***Abstract.** This article analyzes some of the historical films that have received great attention in Uzbek cinema in recent years. Such important features as issues of historicity and artistry, artistic integrity, and a modern view of history are investigated and considered from the point of view of the most important places.*

***Keywords:** history, historicity, historical figure, artistic perception, artistic integrity, historical genre, historical-combat films, enlightenment.*

Kino san'atida tarix mavzusi o'ziga xos o'rin tutadi. Ijodkorlar hamisha tarixiy janrga o'zgacha hayrat, mehr va qiziqish bilan munosabatda bo'lishgan. Kimdir tarixdagi biron voqea-hodisaga qiziqsa, kim uchundir tarixiy shaxslarning faoliyatini o'rganish muhim. Mana shunday yondashuvlar natijasida tarixiy filmlarning tarixiy-afsonaviy, tarixiy-batal, tarixiy-portret, tarixiy-ijtimoiy kabi turlari vujudga keldi. Ular orasida tabiiyki, eng ko'p murojaat etiluvchisi tarixiy portret bo'lib, yo ijodkorning shaxsiy intilishi, yoki yubiley va boshqa sabab

yuzasidan tarixiy shaxslar faoliyati kinematografiyada aks etib keladi. Xususan, 2024 yilda yaratilgan tarixiy badiiy filmlarning ham asosiy qismi xuddi mana shu turkumga mansub bo'ldi.

Qardosh qoraqalpoq xalqining suyuqli farzandi shoir va ma'rifatparvar Ajiniyoz haqidagi film, garchi badiiy bo'lsa-da, hujjatlilik unsurlari ham yetakchilik qiladi. Rejissyor Quadrat Atajonov qo'llagan usulga ko'ra, tarixiy shaxs Ajiniyoz hayoti u haqida ilmiy ish qilmoqchi bo'lgan Amerikada yashovchi qoraqalpoq qizining ota yurtiga kelib, tarixchi yigit bilan muloqot jarayonlarida o'zaro birlashadi. Filmning g'oyasini ochib berish uchun bu juda to'g'ri yondashuv. Zero, mualliflar Ajiniyozning nafaqat tarixda yashab o'tgan mutafakkir, ma'rifatparvar, shoir va hattotligiga, shuningdek, asrlar o'tib ham xalqning birdamligini, qadriyatlarini, millatning o'zligini asrab, anglatib, o'ziga singdirib kelayotgan ramz ekaniga ham e'tibor qaratmoqchi, urg'u bermoqchi, eslatmoqchi bo'ladi, go'yo. Biroq filmda zamonaviy qahramonlarning o'zaro tanishuvi, yaqinlashuvi va bir-biriga ko'ngil qo'yish jarayonlarining yetakchilik qilishi natijasida bu liniya asosiy o'ringa ko'tarilgan va Ajiniyoz hayoti va faoliyati ma'lum olimlarning intervyulari orqali berilishi tarixiy voqea-hodisalarni fon vazifasini bajarib, yoshlarni birlashtirishga xizmat qilgandek, taassurot uyg'otadi. Filmning asosiy yutuqlaridan biri uning tomoshabinga fikr berishga intilishidir. Xususan, tog'asi va ustoz Elmurod oxun Ajiniyozga o'zidagi bor bilimlarni bergach, uni to'xtab qolmaslikka undaydi va Xivadagi Sherg'ozixon madrasasiga jo'natmoqchi bo'ladi. Tabiiyki, bu katta xarajat bilan bog'liq. Maqsadni amalga oshirish uchun ovuldagi boylarni yig'ib, ularga maslahat soladi. Mana shu o'rindagi e'tiborga loyiq jihati shundaki, Elmurod oxun Ajiniyozni iqtidorli ekanini aytib, millatni o'stirish uchun, kelajak avlodni tarbiyalash uchun uni yanada ilmi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu bugungi kun yoshlari uchun juda e'tiborlidir. Uni diplom olishi, martabaga erishishi, boy bo'lishi, yaxshi yashashi uchun emas! Balki yurt koriga yarashi uchun ilm kerakligini, millat ravnaqi va istiqboli ilmga bog'liqligini ijodkorlar mahorat bilan ochib berganlar. Shu o'rinda kinoning ijtimoiy vazifasi ham yuzaga chiqadiki, bugun jamiyatimizda bo'layotgan

o'zgarishlar va ustuvor maqsadlar qayerdan oziqlanishiga hamda Ajiniyoz kabi bobolarning merosi bekorga o'rganilmayotganiga ishora qiladi.

Muzaffarxon Erkinovning "Maxtumquli" filmi tarixiy portret janridagi filmlarning an'anaviy yo'lidan borib, film bosh qahramonning buyuk maqsad sari yo'lga chiqishidan boshlanadi. Kartina davomida tarixiy shaxs hayoti tarixiy faktlarga asoslangan holda yoritiladi. Albatta, badiiy film talablaridan kelib chiqib, qahramon maqsadiga to'g'anoq bo'ladigan dushmanlar va ular bilan yuzaga kelgan konflikt ham ifodalanadi.

Film voqealarini qurishda rejissyorning mahorati tarixiy faktlar bilan badiiy to'qimani ustalik bilan sintez qila olganidadir. Maxtumqulining Buxoro va Xivada o'qiganligi, og'asi, yori, farzandining o'limi barchasi bo'lib o'tgan. Fosiq muallim va uning jiyani bilan bog'liq liniya mualliflarning badiiy fantaziyasi mahsuli bo'lib, filmning badiyatini, keskinlik va konflikt qurishga bo'lgan intilish mahsuli hisoblanadi. Taassufki, so'nggi yillarda yaratilayotgan tarixiy filmlarda mana shu tarixiylik va badiiylik, fakt va to'qimaning sintez yaxshi shakllanmay ular bir-biridan ajralib qolayotgan, natijada rejissuradagi bosh mezon badiiy yaxlitlik oqsayotgan edi. Ishonch bilan ta'kidlash kerakki, Muzaffarxon Erkinov bu borada joriy filmda birmuncha muvaffaqiyatlarga erishganini ko'rish mumkin.

Ma'lumki, kino san'atida voqea, tasvir va ma'no kabi uch qatlam muhim rol o'ynaydi. Har uchchala qatlamning bir xildagi rivoji to'laqonli badiiy asar vujudga kelishiga omil bo'ladi. Filmida voqea hamda tasvir qatlam mohirona amalga oshirilgan. Ma'no qatlamning to'laqonli bo'lishiga film voqealarining alohidalik kasb etgani hamda bosh qahramon maqsadi, intilishi va kurashining yetarlicha ochilmagani pand bergan.

Yilning eng shov-shuvli loyihasi, albatta, "Bahodir Yalangto'sh" (rejissyor Jahongir Ahmedov) filmi bo'ldi. Mahobati, masshtabliligi, murakkab tarixiy-ijtimoiy davr, siyosiy-jangovar hodisalar, diplomatik hamda chuqur psixologik momentlarning ochib berilishi filmning nufuzini oshirdi, deyish mumkin. Hech mubolag'asiz, ijodkorlar ham tanlangan tarixiy materialga mos tarzda katta ijodiy-tashkiliy ishni olib borishgan bo'lib, filmning tasviriy yechimi bugungi o'zbek

kinosining istalgan kino sanoati rivojlangan mamlakatlar filmlari bilan raqobatlasha olishini ko'rsatib qo'ydi. Tomoshabin film tasvirlari orqali o'zini mana shu tarixiy muhit ishtirokchisidek his qiladi. Biroq murakkab tarixiy davr voqealari ijodkorlarga ham qiyinchilik tug'dirgan, shekilli, filmning asosiy voqealari hamda bosh qahramon masalasi yetarlicha ochilmaganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, film so'nggidagi televizion hikoyada o'zining yaqqol isbotini topgan.

Tabiiyki qisqa bir maqola ko'lamida bir qancha filmlarning to'laqonli tahlilini berish imkonsiz. Ushbu nutqning mavzusi tarixiy shaxs portretiga zamonaviy qarash, ya'ni bugungi kunning nuqtai nazari haqida ekanidan kelib chiqib aytish kerakki, bugun tarixiy filmlarni suratga olinishi ham badiiy ehtiyoj bo'lsa, ham ijtimoiy ehtiyojdir. Jamiyat birdamligi, yurt taraqqiyoti, yosh avlodni yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalashda tarixiy filmlarning o'rni beqiyos. Biroq rivojlangan texnologiyalar asrida kino ijodkorlarimiz jahon kinosidagi raqobatni, tomoshabin bugun barcha ma'lumotlarni bemalol olishini ko'zda tutgan holda ijod qilishlari lozim bo'ladi. Mana shu talablardan kelib chiqib ko'rib chiqilgan filmlardagi umumiy kamchiliklar yuzasidan fikr yuritish o'rinli, nazarimizda.

- Qahramonlarning tasviriy san'atdagi portretlarga o'xshab tarixiy liboslar, tarixiy shaxsga o'xshash tashqi ko'rinish bilan yurishlari filmlar uchun kamlik qiladi. Badiiy film insonning tashqi xatti-harakatlari bilan birgalikda uning ruhiyatidagi o'zgarishlarni, baxt va baxtsizlikning kechinmalarini, voqealar silsilasida shaxsning yetuklikka erishishi, ichki evrilishlarini ochib berishi darkor. Mana shu xususiyatlar bo'lmas ekan, tomoshabin harakatdagi illyustratsiyaning tarixiy hikoyasi guvohi bo'ladi, xolos.

- Tarixiy qahramonlar bilan ijodkorlarning o'zlari ham endigina tanishgani filmlarda bilinib qolgan. Zero, hamma biladigan ma'lumotlarni olamshumul topilma sifatida bermoqchi bo'lishmoqda. Ma'lumki, tarixiy shaxs haqida film olish uning butun hayotini ko'rsatib berish majburiyati degani emas. Balki tanlangan qahramon hayotining eng muhim va bugungi tomoshabinga aytilmoqchi bo'lgan qismi ochib berilishi kerak!

- So‘nggi yillarda tarixiy filmlarning ko‘payayotgani quvonarli. Biroq qisqa vaqtda, tezlikda ishlanayotgan filmlar tasviriy hamda voqea jihatidan kino san‘atidagi eng yaxshi namunalarga taqlidan olinib, informatsiya berishdangina iborat bo‘lib qolmoqda. Kino uchun eng muhim hisoblangan tarixni badiiy idrok qilish, faqat bugungi kun kishisi bo‘lib emas, o‘sha davr nuqtai nazaridan ham ko‘ra olish masalalari oqsayotgani bizni tashvishga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // “Xalq so‘zi”. 2017. 4-avgust.
2. Абул-Касимова Х., Тешабаев Дж., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1985. Стр. 288
3. Беленкий И. Лекции по всеобщей истории кино. – Москва: ГИТР. 2008. Стр. 418
4. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: “San‘at”. 2016. Стр. 178